

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**RUZIYEVA MAHFUZA XIKMATOVNA**

**BADIIY TARJIMADA MUTARJIM LISONIY TAFAKKURINING**  
**SOTSIOKOMMUNIKATIV VA LINGVOMADANIY ASPEKTD**  
**NAMOYON BO‘LISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in  
Philology**

**Ruziyeva Mahfuza Xikmatovna**

Badiiy tarjimada mutarjim lisoniy tafakkurining sotsiokommunikativ va  
lingvomadaniy aspektda namoyon bo'lishi .....3

**Рузиева Махфуза Хикматовна**

Проявление языкового мышления переводчика в социокоммуникативном и  
лингвокультурном аспектах в художественном переводе .....23

**Ruzieva Makhfuza Khikmatovna**

The expression of linguistic thinking of the translator in socio-communicative and  
linguo-cultural aspects in literary translation.....45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of publications.....49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**RUZIYEVA MAHFUZA XIKMATOVNA**

**BADIIY TARJIMADA MUTARJIM LISONIY TAFAKKURINING**  
**SOTSIOKOMMUNIKATIV VA LINGVOMADANIY ASPEKTD**  
**NAMOYON BO‘LISHI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil2123 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

|                            |                                                                                                                                                           |
|----------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Ilmiy rahbar:</b>       | <b>Qosimova Nafisa Farhodovna</b><br>filologiya fanlari doktori, dotsent                                                                                  |
| <b>Rasmiy opponentlar:</b> | <b>Djumabayeva Jamila Sharipovna</b><br>filologiya fanlari doktori, professor<br><b>Adizova Obodon Istamovna</b><br>filologiya fanlari doktori, professor |
| <b>Yetakchi tashkilot:</b> | <b>Jizzax davlat pedagogika universiteti</b>                                                                                                              |

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « 28 » avgust soat 9.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (975 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 12 » avgust kuni tarqatildi.  
(2026-yil « 12 » avgust dagi 26-3 - raqamli reyestr bayonnomasi).



**O.M.Fayzulloyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**M.R.Ochilova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD), professor

**Z.Q.Amanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tarjimashunosligida badiiy tarjima zamonaviy antropotsentrik paradigma doirasida mutarjim lisoniy tafakkurining asliyat matnining milliy-madaniy mazmuni, ijtimoiy-kommunikativ muhiti hamda lisoniy shaxsiga xos xususiyatlarini aks ettirishda namoyon bo'lishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Biroq mutarjim lisoniy tafakkurining sotsiokommunikativ va lingvomadaniy aspektda voqelanishi, milliy-madaniy xoslangan birliklarning semantik-pragmatik mazmunini adekvat qayta yaratish hamda asliyatdagi lisoniy olam manzarasini tarjima matnida saqlash bilan bog'liq muammolar o'z yechimini kutmoqda. Shu ma'noda mutarjim lisoniy tafakkurining badiiy tarjima diskursida voqelanish mexanizmlarini, uning kognitiv-lingvomadaniy funksiyalarini hamda asliyat mazmunini saqlashga xizmat qiluvchi strategiyalarni aniqlash, sotsiokommunikativ muvofiqlikni ta'minlashning mezonlarini ishlab chiqish zamonaviy tarjimashunoslikda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tarjimashunosligida mutarjim lisoniy shaxsi va uning kognitiv qoliplarining pragmatik mohiyati, ularning ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog'liqligi hamda asliyat va tarjima matnlari o'rtasida lingvomadaniy muvofiqlikni ta'minlash masalalari ustuvor ilmiy yo'nalish sifatida tobora kengroq yoritilmoqda. Xususan, mutarjim lisoniy tafakkurining kognitiv, sotsiokommunikativ va lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish, badiiy tarjimada madaniy-tarixiy yo'qotishlarni kamaytirish hamda asliyatdagi milliy ruhiyat va lisoniy olam manzarasini adekvat qayta tiklashga xizmat qiluvchi nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish zamonaviy tarjimashunoslik metodologiyasini boyitishda muhim rol o'ynamoqda. Shu nuqtayi nazardan, mutarjim lisoniy tafakkurining sotsiokommunikativ va lingvomadaniy aspektda namoyon bo'lish tamoyillarini qiyosiy-pragmatik va kognitiv rakursda izchil tadqiq etish dolzarb ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda keyingi yillarda xorijiy tillarni o'rganish, tarjimashunoslikni rivojlantirish va milliy adabiyot namunalarini jahon ilmiy-madaniy makoniga olib chiqishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini xorijiy tillarga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish kabi vazifaga qaratilgan davlat siyosati"<sup>1</sup> o'zbek tarjimashunosligi sohasi uchun ham salmoqli tadqiqotlarni jahon standartlari darajasiga olib chiqishdek ustuvor vazifani belgilab berdi. Mazkur jarayonda badiiy tarjimada mutarjim tafakkurining ijtimoiy-madaniy va lingvokognitiv jihatlarini kompleks o'rganish, ularning tarjima matnida namoyon bo'lish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-3743182>

to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bugungi kunda tarjimada ijodkor lisoniy tafakkuri konseptlari dunyo olimlari tomonidan turli tillarda mavjud materiallar asosida bir necha aspektlar doirasida keng tadqiq qilinmoqda. Jahon tarjimashunosligida tarjima jarayoni tadqiqi, tarjimashunoslikdagi yangicha yondashuvlar, tarjimon shaxsiyatining tarjima jarayoniga ta'siri, kognitiv tarjimashunoslik aspektlari J.D.Shayn, N.Schweda-Nicholson, M.Agar, W.Nash va J.Condon kabilar tomonidan tadqiq etilgan<sup>2</sup>. Tarjima nazariyasining rivojlanishi va uning tarjimashunoslik, lingvokulturologiya, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning mustaqil qismi sifatida shakllanishini o'rganishda tarjimani o'qitish, o'rganish va amalga oshirish uchun asos yaratgan rus olimlari Yu.Karaulov, V.Komissarov, A.Vejbitskayaning<sup>3</sup> xizmatlari muhim ahamiyatga ega. Ularning xizmatlari tarjimon lisoniy tafakkuri va madaniy ma'lumotlarni tarjimada ifodalash usullarini tasniflashga bag'ishlangan, bu bo'lsa o'z navbatida ushbu sohada ko'plab tadqiqotlarning boshlanish nuqtasiga aylandi. V.Gak, A.Zalevskaya, A.Leontyev, Y.Lukashevich va Y.Sorokinlar<sup>4</sup> tarjimon lisoniy tafakkuri namoyon bo'lishi

---

<sup>2</sup> Schein J.D. Personality Characteristics Associated with Interpreter Proficiency. Journal of the American Deafness and Rehabilitation Association №7(3), 1974. – pp. 33-43.; Schweda-Nicholson N. Personality Characteristics of Interpreter Trainees: The Myers-Briggs Type Indicator (MBTI). The Interpreters' Newsletter №13, 2005a. – pp.109-142.; Agar M. Language Shock: Understanding the Culture of Conversation. – New York: William Morrow & Company Inc., 2002. – 184 p.; Nash W. Our Experience of Language. St. Martin's Press, New York, 1971. –193 p.; Condon, J., Yousef F. An Introduction to Intercultural Communication. – The Bobbs Merrill Company, Inc., Indianapolis, 1985. – 306 p.

<sup>3</sup> Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – 264 с.; Комиссаров В.Н. Когнитивные аспекты перевода// Перевод и лингвистика текста. – М.: Всероссийский центр переводов, 1994. – 22 с.; Вежицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов. – М.: Языки славянской культуры, 2001. – 288 с.

<sup>4</sup> Гак В.Г. Языковые преобразования. – М.: Языки русской культуры, 1998. – 768 с.; Залевская А.А. Введение в психолингвистику. – М.: Рос. гос. гуманит. ун-т, 1999. – 382 с.; Леонтев А.А. Основы психолингвистики. – М.: Смысл, 1997. – 287 с.; Лукашевич Е.В. Когнитивная семантика: эволюционно-прагматический аспект:

hodisasini psixolingvistik umumnazariy nuqtayi nazardan talqin qilishgan bo'lsa, Y.Tarasov S.Ter-Minasova, N.Ufimseva, T.Fesenko, R.Yakobson, K.Sedov, V.Maslova va Z.Popovalar<sup>5</sup> lisoniy tafakkurning diskursiv, lingvomadaniy, sotsiokommunikativ aspektlari hamda mutarjimning o'ziga xos va betakror stili bo'yicha o'z tadqiqot ishlarini olib borishgan. L.Latishev, A.Semenov, L.Kozlova, O.Leontovich hamda Yu.Karaulov<sup>6</sup> lingvomadaniylik fenomenida matnlararo bog'liqlikning ustunligi hamda asl matn va tarjima qilingan shaklida o'zaro ta'sir hodisasini chuqur tahlil etgan olimlardirlar.

O'zbek tilshunosligida til va madaniyat masalalari bilan chuqur shug'ullangan olimlar, jumladan Sh.Safarov, D.Niyazova, Sh.Usmonova kabilar, til va madaniyat tadqiqining mukammal yo'llarini izlab, olamning lisoniy tasviri tushunchasi ustida ko'plab izlanishlar olib borishgan. I.G'ofurov, Q.Musayev, Sh.Sirojiddinovlarning ishlari o'zbek tarjimashunosligida ulkan nazariy va uslubiy ahamiyatga ega<sup>7</sup>. Zamonaviy tarjima ilmida, shuningdek, stilistik texnika, konseptual metaforalar tarjimasi, tarjima jarayonida psixolingvistik qoliplar va kognitiv mexanizmlarning lingvomadaniy shartlanishi kabi masalalar G'.Salomov, N.Komilov, Q.Musayev, I.Mirzayev, Sh.Safarov, I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov, N.Qosimova, R.Kasimova, A.Fayziyeva kabi olimlar tomonidan keng yoritilgan<sup>8</sup>.

---

Монография – М., Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2002. – 234 с.; Сорокин Й.А. Введение в этнопсихолингвистику. – Ульяновск: Ул.ГУ, 1998. – 138 с.

<sup>5</sup> Тарасов Е.Ф. Актуальные проблемы анализа языкового сознания // Языковое сознание и образ мира: Сб. статей / Отв. ред. Н.В. Уфимцева. – М.: ИЯ РАН, 2000. – С. 24-32; Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация: (Учеб. пособие) / С.Г.Тер-Минасова. – М.: Слово / Слово, 2000. – 624 с.; Уфимцева Н.В. Языковое сознание и образ мира славян // Языковое сознание и образ мира. – М.: ИЯ РАН, 2000. – С. 207-218.; Фесенко Т.А. Эмоциональные концепты в структуре вербальной модели менталитета // Филология и культура. – Част III. – Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2001. – С. 23-26; Якобсон П.О. О лингвистических аспектах перевода // Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. – М.: Международные отношения, 1978. – С. 16-24; Седов К.Ф. Дискурс и личность: эволюция коммуникативной компетенции. – М.: Лабиринт, 2004. – 320 с.; Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Академия, 2001. – 208 с.; Попова, З.Д., Стернин, И.А. Язык и национальная картина мира. – изд. 4-ое, стер. – М. -Берлин: Директ-Медиа, 2015. – 101 с.

<sup>6</sup> Латишев, Л.К., Семенов А.Л. Перевод: проблемы теории, практики и методика преподавания. Учебное пособие – М.: «Академия», 2003. – 192 с.; Козлова Л.А. Лингвокультурный аспект в обучении грамматике (на материале английского языка) // Методология обучения иностранным языкам в ВУЗах. – Новосибирск: НГУ, 1999. – 66 с.; Леонтович О.А. Россия и США: Введение в межкультурную коммуникацию: Учеб. пособие. – Волгоград: Перемена, 2003. – 399 с.; Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность / Ю. Н. Караулов. – изд. 3-е, стереотип. – М.: Эдиториал УРСС, 2003. – 264 с.

<sup>7</sup> Сафаров Ш. Таржимашуносликнинг когнитив асослари. – Тошкент, 2019. – 300 б.; Ниязова Д.Х. Бадий матнда лисоний шахс типлари: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 2020. – С.15.; Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. 248 b.; Faфуров И. Таржимонлик мутахассислигига кириш. – Тошкент, 2008. – 118 б.; G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2012. – 321 b.; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005. – 352 б.; Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 236 б.; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан. 2005. – 352 б.; Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадий таржима асослари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. – 164 б.;

<sup>8</sup> Salomov G'. Tarjima san'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. – 263 b.; Комилов Н. Муҳаммадризо Огаҳийнинг таржимонлик маҳорати: Филол. фанлари номз... дисс. – Тошкент, 1970. – 349 б.; Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 352 б.; Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста. Дисс... доктора филол. наук. – Ташкент: Институт языкознания АН УзССР, 2002. – 472 с.; Сафаров Ш. Когнитив таржимашунослик. Монография. – Самарканд, 2019. – 354 б.; Сафаров Ш. Таржимоннинг лисоний шахс сифатида бажарадиган фаолияти // Иностранная филология: язык, литература, образование, 3(3) (68). – Самарканд, 2018. – Б. 9-20; G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2012. – 216 б.; Qosimova N.F. Tarjima kognitiv mexanizmlarida psixolingvistik qoliplar ishtirokining lingvomadaniy shartlanishi: filol. fan. dokt. diss ...– Buxoro,

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari muvofiq "Pragmalingvistika, funksional tarjimashunoslik va til o'rgatish jarayonlari integratsiyasi" (2021-2024) mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** badiiy tarjimada mutarjim lisoniy tafakkurining sotsiokommunikativ va lingvomadaniy aspektda namoyon bo'lish tamoyillarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tarjimada asliyat matni tushunishda mutarjim lisoniy shaxsi qoliplarining kognitiv jarayonlarini izohlash;

inson intellektual potensialining lisoniy shaxs shakllanishidagi ahamiyati va tarjimon lisoniy shaxsining funksionallik diapazoni xoslanishidagi ahamiyatini ko'rsatish;

tarjima diskursining mutarjim tafakkuri bilan bog'liqligi hamda tarjima foaliyatining kognitiv xususiyatlarini ochib berish;

madaniy voqelik kontekstini tiklashda mutarjimning tarjima matniga sotsiokommunikativ yondashuvi va tarjimonning lingvomadaniy kontekstda ijtimoiy muomala munosabatlarida muvaffaqiyatli aloqani shartlantiruvchi omillarni aniqlash;

tarjima jarayonida lingvomadaniy vositalarni bir tildan boshqa tilga o'girishning mavjud strategiyalarini tadqiq qilish;

tillararo tarjimada mutarjim lisoniy shaxsi va kognitiv qoliplari ishtirokining sotsiokommunikativ va lingvomadaniy shartlanishini misollar yordamida dalillash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida o'zbek tilida yaratilgan badiiy asarlar va ularning ingliz tiliga bevosita va bilvosita amalga oshirilgan tarjimalari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** badiiy tarjimada mutarjim lisoniy tafakkurining sotsiokommunikativ va lingvomadaniy aspektda namoyon bo'lishi tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada lingvomadaniy, tasniflash, kontekstual-situativ, lingvopragmatik tahlil kabi usullardan -foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mutarjim lisoniy tafakkurining shakllanishi asliyat matni diskursining millat tili, madaniyati, milliy mentaliteti, dunyoqarashi, ruhiyati, e'tiqodiy tushunchalari, o'ziga xos urf-odat va marosimlari, tafakkur tarzi ustivorligi kabi omillar negizida voqelanishi hamda bu jarayon tarjimon lisoniy shaxsining kognitiv va motivatsion darajalarida namoyon bo'lishi aniqlangan;

milliylikni ifodalovchi realiyalar, tarixiy so'zlar, *karvonsaroy*, *hujra*, *ko'rpacha*, *aqiqa* kabi madaniy kodlangan lisoniy birliklarni tarjima qilishda transkripsiya, kalkalash, ekvivalent, analog, kompensatsiya, generalizatsiya singari tarjima usullarining tanlanishi tarjimon lisoniy shaxsi kognitivlik doirasi hamda uning psixolingvistik qoliplaridan kelib chiqishi isbotlangan;



asliyat matnidagi sotsiokommunikativ va lingvomadaniy jihatlarni aks ettiruvchi leksik birliklar semantikasi va pragmatikasini adekvat tarzda qayta tiklashda, shuningdek, asarning madaniy-tarixiy manzarasini saqlab qolishda mutarjimning lisoniy, kognitiv, pragmatik va lingvomadaniy kompetensiyalarining yug'unlashuvi, ya'ni delakunizatsiya jarayonida ichki moslashuvdan tashqi moslashuvga o'tish mahorati ustuvorlik kasb etishi dalillangan;

asliyatda aks ettirilgan lisoniy olam manzarasi va tarjima matnidagi olam tasvirlariaro tafovutlar nisbatining kichik bo'lishi manba va tarjima tillari lingvomadaniy xususiyatlarining yaqinligi bilan, shuningdek, asliyat tili madaniyatining adabiy konteksti qabul qiluvchi til adabiyotining salmoqli qismini tashkil etishi, qabul qiluvchi auditoriyaning etnomental tajribasi va fon bilimlari darajasi bilan shartlanganligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

badiiy tarjimada mutarjim lisoniy tafakkurining sotsiokommunikativ va lingvomadaniy aspektda namoyon bo'lish xususiyatlari zamonaviy tarjimashunoslik va kognitiv tilshunoslik yutuqlari asosida "O'tkan kunlar" romanining uchta ingliz tilidagi tarjimalari (K.Yermakova, I.To'xtasinov, M.Riz) misolida aniqlangan;

milliy-madaniy xoslangan birliklarni tarjimada qayta yaratishda mutarjim lisoniy shaxsi kognitivlik doirasidan kelib chiqib tanlanadigan transkripsiya, kalkalash, ekvivalent, analog, kompensatsiya va generalizatsiya usullarining funksionalligi isbotlangan;

mutarjim lisoniy tafakkurining badiiy tarjimada namoyon bo'lish modeli va sotsiokommunikativ hamda lingvomadaniy muvofiqlikni ta'minlash strategiyalari ishlab chiqilib, ularni badiiy tarjima amaliyotida qo'llash, mutarjimler tayyorlash jarayonida maxsus o'quv kurslari hamda metodik tavsiyalarni takomillashtirish orqali tarjima sifatini oshirish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy muammoning aniq belgilanganligi, chiqarilgan xulosalarning lingvomadaniy, tasniflash, kontekstual-situativ, lingvopragmatik kabi tahlil usullari bilan asoslanganligi, tanlab olingan badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy g'oyalar va ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amalda sinovdan o'tkazilganligi hamda natijalar vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarjimon lisoniy shaxsi rivojlanish diapazonining milliy va lingvistik xususiyatlari, milliy kontekstda qo'llaniladigan milliylashgan so'zlar tasnifi hamda ular tarjimasi parametrlari xususiyatlari bo'yicha chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalardan har bir til tizimidagi turli konseptual-kognitiv belgilarini chog'ishtirma aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy va o'rta maxsus, umumta'lim tizimida til va nutq hodisalarining tarjimada ahamiyatini farqlash, badiiy matn tahliliga erishish, adabiy manbalarning qiyosiy til tahlili bo'yicha maxsus kurs va seminarlar o'tish, "Tarjimada adabiy til", "Lingvokulturologiya", "Psixolingvistika", "Etnolingvistika", "Kognitiv tarjimashunoslik", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Badiiy tarjima asoslari", fanlaridan darslik va o'quv

qo'llanmalar yaratish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida xorijiy tillarni o'rganishga hamda o'zbek tilidagi asarlarni xorijiy tillarga tarjima qilishga yo'naltirilgan tashviqni kuchaytirish uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Badiiy tarjimada mutarjim lisoniy tafakkurining sotsiokommunikativ va lingvomadaniy aspektida namoyon bo'lishi tadqiqini amalga oshirish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

mutarjim lisoniy tafakkurining shakllanishi asliyat matni diskursining millat tili, madaniyati, milliy mentaliteti, dunyoqarashi, ruhiyati, e'tiqodiy tushunchalari, o'ziga xos urf-odat va marosimlari, tafakkur tarzi ustivorligi kabi omillar negizida voqelanishi hamda bu jarayon tarjimon lisoniy shaxsining kognitiv va motivatsion darajalarida namoyon bo'lishiga oid nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020- yillarda bajarilgan OT-Φ1-030 "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jildlik monografiyani (7 jild) chop etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 27-oktyabrdagi 01/10-2266-son ma'lumotnomasi). Natijada milliy adabiyotlar tarjimasining millat hamda tarjimon tafakkurini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslashga hamda o'zbek tilida yaratilgan badiiy adabiyot namunalarini tarjima qilishda tarjimon lisoniy va kognitiv olam manzarasi – tarjima jarayoniga psixolingvistik yondashuvga asoslangan tarjima modeli bo'lganligini belgilovchi jihatlarga e'tiborni kuchaytirishga xizmat qilgan;

asliyat matnidagi sotsiokommunikativ va lingvomadaniy jihatlarni aks ettiruvchi leksik birliklar semantikasi va pragmatikasini adekvat tarzda qayta tiklashda, shuningdek, asarning madaniy-tarixiy manzarasini saqlab qolishda mutarjimning lisoniy, kognitiv, pragmatik va lingvomadaniy kompetensiyalarining yug'unlashuvi, ya'ni delakunizatsiya jarayonida ichki moslashuvdan tashqi moslashuvga o'tish mahorati ustuvorlik kasb etishi bilan bog'liq xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018 yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+ CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy talim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli xorijiy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 28-apreldagi 1119/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz tilida ishlab chiqilgan 8 ta maxsus kursning o'zbek tiliga o'girilishi jarayonida targ'ibot materiallarini joriy etishning ilmiy-amaliy ahamiyati isbotlangan va matnlarning leksik, semantik qatlamidagi lingvopragmatik xususiyatlarini til o'zlashtirish asosi sifatida talqin etishga imkon bergan;

asliyatda aks ettirilgan lisoniy olam manzarasi va tarjima matnidagi olam tasvirlariaro tafovutlar nisbatining kichik bo'lishi manba va tarjima tillari lingvomadaniy xususiyatlarining yaqinligi bilan, shuningdek, asliyat tili madaniyatining adabiy konteksti qabul qiluvchi til adabiyotining salmoqli qismini tashkil etishi, qabul qiluvchi auditoriyaning etnomental tajribasi va fon bilimlari darajasi bilan shartlanganligibilan bog'liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida "Assalom Buxoro", "Sakkizinchil mo'jiza", "Intervyu plyus" ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 9-noyabrdagi 1/281-son ma'lumotnomasi).

Natijada ushbu teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashtirilib, ilmiy dalillarga boy bo'lishiga erishilgan va ko'rsatuvning ilmiy-ommabopligi ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, O'zbekiston respublikasi oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ulardan, 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy nashrlarda chop etildi.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 150 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti keltirilgan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning I bobi "**Lingvopersonologiyada lisoniy shaxs va tafakkur munosabati**" tarzida nomlangan bo'lib, unda lisoniy shaxs tushunchasi zamonaviy lingvistika va lingvopersonologiya obyekti sifatida ta'riflandi. Xorijiy tilshunoslikda lisoniy shaxs nazariyasi (konsepti) tahlil qilinib, bunda nutq tuzuvchisi va nutqni idrok etuvchi shaxs tushunchasi talqinida yangi nazariy qarashlar lingvopersonologiyaning shakllanishiga turtki bo'lganligi keltirib o'tildi. Lingvopersonologiyada nutq tuzuvchi va nutqni idrok etuvchi shaxs lisoniy shaxs sifatida talqin etilib, lingvopersonologiyaning obyekti hisoblanadi.

Tilshunoslikda matn yaratilishi, matnda til egalarining shaxs xususiyatlari aks etishi muammosini o'rganishga bo'lgan qiziqish tilni lingvopersonologik aspektda tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirgan deyish mumkin. Matnni lingvopersonologik aspektda o'rganish asosida til egalarining tildan foydalanishi jarayonida unga ta'sirini va bu jarayonda ishtirok etuvchi tashqi omillarni aniqlash imkoniyati tug'iladi. O'tgan asrda dunyo tilshunosligida lingvopersonologiya muammolari bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borildi. G.I.Bogin nutq jarayoni subyekti va nutqni yaratuvchi hamda qabul qiluvchi lisoniy shaxs modelini yaratdi<sup>9</sup>. N.V.Melnik personologik lingvistika va lingvistik personologiyani bir-biridan farqlashga urindi<sup>10</sup>. V.P.Neroznak lingvistik personologiyaning fan yo'nalishi sifatida

<sup>9</sup> Богин Г.И. Модель языковой личности в ее отношении к разновидностям текстов: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – Л., 1984.

<sup>10</sup> Салахова А.Г. Лингвоперсонологический подход в исследовании профессиональной языковой личности // Филологические науки. Вопросы теории и практики. № 8 (50). Ч. II. – Тамбов: Грамота, 2015. – С. 159-162.

shakllanib bo‘lganligini e‘tirof etdi<sup>11</sup>. Yu.N.Karaulovning ta’kidlashicha: “Lisoniy shaxs – bu til o‘rganishning barcha jabhalarini qamrab oladigan va shu bilan birga insonni o‘rganadigan fanlar o‘rtasidagi chegaralarni buzadigan g‘oya”. Lisoniy shaxsning tuzilishi masalasida deyarli barcha tadqiqotchilar Yu.N.Karaulov<sup>12</sup> tomonidan taklif qilingan lisoniy shaxs modeliga u yoki bu tarzda murojaat qilishadi (*rasm 1ga qarang*); ushbu model ko‘pincha turli xil lisoniy shaxslarni tahlil qilish uchun asos sifatida ishlatiladi, o‘zgartiriladi, tahrirlanadi. Bu model uchta darajadan iborat: og‘zaki-semantik (og‘zaki-grammatik) yoki leksikon, lingvistik-kognitiv yoki tezaurus va motivatsion, yoki pragmatikon. Lisoniy shaxs konseptini o‘rganayotganda insonning intellektual qobiliyatlarini Y.N.Karaulov birinchi o‘ringa qo‘yadi. Shunday qilib, ona tilida so‘zlashuvchi uchun tilni normal darajada bilishni nazarda tutadigan eng past, og‘zaki-semantik daraja nol deb tan olinadi, garchi bu lisoniy shaxsning shakllanishi va faoliyati uchun ahamiyatlidir.



1.1.-rasm. Y.N.Karaulovning lisoniy shaxs shakllanishining 3 bosqichli modeli.

Darajalarning har biri o‘ziga xos birliklar to‘plami bilan ajralib turadi, ular birgalikda tilni o‘rganishda ishlatiladigan barcha birliklarni qamrab oladi va ularni ushbu darajalarning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab qayta taqsimlaydi. Anglashiladiki, lisoniy shaxs tushunchasi o‘z atrofiga shaxs muammosi bilan bog‘liq juda ko‘p sohalarni tortadi. Bu holat lisoniy shaxs bilan bog‘liq unga yondosh qator masalalarni ham o‘rganish lozimligini anglatadi. Jumladan, tilshunoslikda til imkoniyatlarini namoyish etuvchi nutq egalarining lisoniy shaxsi, uning tiplarini ajratish, lisoniy shaxs egalariga xos modellarini yaratish, lisoniy shaxs portretini chizish dolzarb muammolar hisoblanadi.

Shu kunga qadar o‘zbek tilshunosligida lisoniy shaxs tushunchasi alohida, mustaqil kategoriya sifatida o‘rganilmagan. Ayrim tilshunoslar, jumladan, Sh.Safarov, D.Niyazova, N.F.Qosimova va I.K.Mirzayevlar ba’zi kognitiv lingvistika tushunchalari, xususan, lisoniy shaxs va lisoniy ong tushunchalarining farqlanishi hamda lisoniy shaxs tiplarining nutqga nisbatan ifodalashi jihatlari va tarjimaning kognitiv mexanizmlarida psixolingvistik qoliplarning shartlanishlari haqida to‘xtalganlar. Xorij olimlaridan V. Gumboldt, L. Vaysgerber, Boduen de

<sup>11</sup> Нерознак В. П. Лингвистическая персонология: к определению статуса дисциплины // Язык. Поэтика. Сб. науч. тр. Моск. линг. университета. № 426. – М., МГЛУ, 1996. – С. 112 -116.

<sup>12</sup> Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. Изд. 7-е – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – 264 с.

Kurtene, A.A. Potebnyalar lisoniy shaxs tiplari muammosi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan. Tilshunoslar lisoniy shaxsga ma'lum ta'riflarni keltirib o'tishadi. Jumladan, G.I. Bogin<sup>13</sup> lisoniy shaxsni tilni egallagan shaxs sifatida baholaydi. Uning fikricha, lisoniy shaxs til orqali qanday faoliyat yurita olishi asosida tavsiflanadi. Nazarimizda, lisoniy shaxsni tilni egallagan shaxs sifatida baholash uni tor tushunish bilan bog'liq. Bizningcha, lisoniy shaxs shunchaki tilni egallagan til sohibi emas, u nutqi orqali egallagan tilning imkoniyatlarini namoyish etishi barobarida, shaxs sifatidagi o'z belgilarini ham ko'rsata oluvchi shaxsdir. Lisoniy shaxs hatto tilni nutqqa ko'chiruvchi shaxsgina emas, nutqni idrok etuvchi, uni talaffuz qiluvchi hamdir. Lisoniy shaxs muloqot jarayonida ishtirok etayotib, til bilimi, nutq yaratish va uni idrok etish ko'nikmasi, shuningdek, jamiyat a'zolarining til tajribasi, nutq yaratish mexanizmi kabilarni namoyish etuvchi insondir.

Dissertatsiyaning **“Badiiy tarjimada mutarjim lisoniy shaxsi va tafakkuri”** deb nomlangan ikkinchi bobida badiiy tarjimada mutarjim va adib lisoniy shaxslarining nisbati, tarjima jarayonida mutarjim lisoniy shaxsining individual-ijodiy namoyonligi va tarjima diskursining mutarjim tafakkurining kognitiv va lingvomadaniy ahamiyati pragmatik aspektida tahlil qilinadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, “lisoniy shaxs” va “tarjimon lisoniy shaxsi” tushunchalari umumiy munosabatlar bilan bog'liq, shuning uchun biz Yu.N. Karaulovning<sup>14</sup> lisoniy shaxsning uch bosqichli modelini mos yozuvlar nuqtasi sifatida tanladik.

1. Baholovchi-aksiologik daraja: u har bir predmetni tarbiyalash va o'qitish jarayonida shakllanadi va ma'no yoki ma'nolarning har birining hayotiga bog'laydigan axloqiy tamoyillar tizimini ishlab chiqaradi. Bu orqali lisoniy shaxs o'zining milliy xarakterini shakllantiradigan ma'naviy timsollarga ega bo'ladi.

2. Milliy-madaniy daraja: shaxsni o'rab turgan madaniy elementlarni, verbal va noverbal xatti-harakatlarda yetarli va samarali foydalanish qoidalari va an'analarini egallashdan iborat.


3. Shaxsiy-xususiy daraja: u har bir inson shaxsiyatining barcha xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Biroq, tarjimonning til shaxsiyatining bir qator xususiyatlari bilan bog'liq holda, Yu.N. Karaulov tomonidan taklif qilingan tadqiqot usuli tarjimonning til shaxsini modellashtirish uchun juda mos emas, shuning uchun ilmiy ishimizda bir qator usullarni birlashtirgan biroz boshqacha tadqiqot algoritmi taklif etiladi. Fikrimizcha, tarjimonning nutq faoliyatining asosiy xususiyati uning ikkilamchi ekanligidir. Bu holda ikkilamchi tushunchasi to'g'ridan-to'g'ri baholovchi ma'noga ega emas, shunchaki o'ziga xoslikni ko'rsatadi. Tarjima matni ikkinchi darajali matn bo'lgani uchun tarjimon asl muallifga bo'ysunadi. Muallif singari, u prinsipial jihatdan matn ustida o'z ishining izlarini qoldirmasligi mumkin emas, garchi u buni tarjima ekvivalentligi talablariga muvofiq amalga oshirishga intilsa ham. Ammo, tarjima matnida aks ettirilgan tarjimonning lisoniy shaxsi to'g'ridan-to'g'ri kuzatilganidan farqli darajalarga ega.

<sup>13</sup> Богин Г.И. Модель языковой личности в ее отношении к разновидностям текстов: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – Л., 1984.

<sup>14</sup> Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. Изд. 7-е – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – 264 с.

Bunday ko'p yo'nalishli ta'sirlar ostida ikki tilli shaxsning o'ziga xos shaklini quyidagi sxema shaklida ifodalasa bo'ladi (2-rasm ga qarang: qulaylik uchun, bu ikki tilli shaxsning ona tili o'zbek, ikkinchisi ingliz tili ekanligini tasavvur qilaylik).



**2-rasm. Ikkilamchi tilda lisoniy shaxsning tuzilishi<sup>15</sup>**

- 1-boshlang'ich (bir tilli) lisoniy shaxs;
- 2-ikki tilli lisoniy shaxs (bilingual inson lisoniy shaxsi);
- 3-ona tilida muloqotni amalga oshiradigan lisoniy shaxs;
- 3a- umumiy o'zbek tilidagi muloqot turi;
- 4- ikkinchi tilda muloqot amalga oshiradigan lisoniy shaxs (ikkilamchi tildagi muloqot);
- 4a-umumiy ingliz tilidagi muloqot turi.

Yuqorida keltirilgan diagrammada ko'rsatilganidek, ikki tilda gapiradigan odamning lisoniy shaxsi (2) ikki tomonlama elementlar to'plamini o'z ichiga oladi. Ulardan birinchisi o'zbek tilida so'zlashuvchilar bilan aloqa sharoitida muloqot amalga oshiriladigan o'zbek tili shaxsini (3) tashkil etadi. Uning asosi asl lisoniy shaxsni tashkil etgan birliklardir. (1) O'zbek tili lisoniy shaxsi birliklarining mazmuni yadrosi bo'lgan umumiy o'zbek tili turiga (3a) qaratilgan. Umumiy o'zbek tili turi jamoaviy toifadir, shuning uchun ushbu turdagi birlikning tarkibiy qismlari har bir alohida o'zbek tilli shaxsda to'liq to'plamda bo'lishi shart emas. Shuning uchun 3a sohasi simulatsiya qilingan til shaxsidan tashqariga chiqadi. Periferiya lisoniy shaxsning o'ziga xos shaxsiy xususiyatlari: shaxsiy uyushmalar, sevimli so'zlar va grammatik tuzilmalar, ularning dunyoqarashlari va boshqalar bilan shakllanadi. Shunday qilib, diagrammada ular 3a maydonidan tashqari 3 raqami bilan ko'rsatilgan maydonga mos keladi. Xuddi shunday ingliz tili lisoniy shaxsi (4) ingliz tilida so'zlashuvchilar bilan muloqotni amalga oshiradi va shu tarzda uning asosini tashkil etuvchi ingliz umummilliy turiga (4a) yo'naltirilgan bo'lib, periferiyaga (4 minus 4a) ega bo'ladi<sup>16</sup>.

Binobarin, tarjimon ijtimoiy rolni bajaruvchi vazifasini bajaradi, u shu rol bilan bog'liq va asar muallifidan farqli o'laroq, o'zligini ifoda etishda erkin emas, chunki uning ishi muallifning niyati va tarjima holati bilan boshqariladi. Shu munosabat bilan, «tarjimonning lisoniy shaxsi» atamasi ostida biz tarjimon shaxsining modelini haqiqiy shaxs darajasida ham, uning diskursi asosida qayta tiklangan ijtimoiy rolning mavhum yozilgan ijrochisi darajasida ham olamiz, u o'zi yaratgan matnlar to'plami sifatidaham, asl xorijiy asarlarning tarjima matnlari sifatidaham tushuniladi. Shunday qilib, tarjimonning lisoniy shaxsini tahlil qilish uchun material sifatida ishlatiladigan matnni haqiqiy shaxs yoki badiiy asar qahramonining lisoniy shaxsini tavsiflashda bo'lgani kabi to'g'ridan-to'g'ri tahlil qilish mumkin emas. Tarjima matni ikkinchi darajali matndir, ya'ni matnning barcha tarkibiy va semantik tarkibiy qismlari tarjimonning lisoniy shaxsidan kelib chiqmaydi. Tarjimon ushbu matnlarning potensial qabul qiluvchilariga teng ta'sirini saqlab qolish sharti bilan manba matni va tarjima matnining maksimal matnli o'xshashligiga intiladi. Tarjima o'zgarishlariga turli omillar sabab bo'lishi mumkin. Ulardan ba'zilari tarjima

<sup>15</sup> Шевченко О.Н. Языковая личность переводчика: Дисс.на кан.фил.наук. – Волгоград, 2005.

<sup>16</sup> Шевченко О.Н. Языковая личность переводчика: Дисс. канд.филол.наук. – Волгоград, 2005.

janrining talablari bilan belgilanadi, tarjimon ularni manba tili va tarjima tilining til tizimidagi farqlarini birgalikda qoplash uchun ishlatadi. Latishov terminologiyasida bu quyidagi omillarni o'z ichiga oladi: 1) manba tili va tarjima tili tizimlarining farqi, 2) manba tili va tarjima tili normalarining mos kelmasligi va 3) manba va tarjima tilining ona tilida so'zlashuvchilarning nutq normalari (uzuslari) o'rtasidagi nomuvofiqlik<sup>17</sup>.

Asl tilda va tarjima tilida ma'nolarni ifodalashning leksik va grammatik usullari o'rtasidagi farq bilan bevosita bog'liq bo'lmagan transformatsiyalar yanada qiziqroq. O'zgartirilgan ifodadagi ma'lumotlar rasmiy ravishda matnning asl segmenti ma'nolari to'plamiga teng kelmaydi. Ushbu turdagi transformatsiyalar potensial tarjima qiluvchilarning bilimlari ekstralingvistik yoki manba matnining qabul qiluvchilariga teng emasligi bilan bog'liq. Masalan, "karvonsaroy", "hujra", "bo'z ko'rpacha", "adras ko'rpacha" kabi so'zlar o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan elementlar bo'lib, boshqa til madaniyatiga xos bo'lgan tinglovchiga ma'lum bo'lmagan narsa hisoblanadi. Binobarin, quyida tarjimaning mutarjim tomonidan funksional analog yordamida amalga oshirganligi holatini kuzatamiz:

**Asliyat matni:** "Saroyning to'rida boshqalarg'a qarag'anda ko'rkamroq bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to'shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarda qora charog' sasig'anda, bu hujrada sham' yonadir, o'zga hujralarda yengil tabi'atlik, serchaqchaq kishilar bo'lg'anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda" (A.Qodiriy, 6-b.).

**Tarjima matni 1:** "In the far reaches of the courtyard we see a snug room, marked by the elegance of its décor. If simple koshma felt rugs cover the floors in other rooms, here we find rich crimson carpets; if coarse blankets festoon the other quarters, here they are replaced by kurpach covers made of skills and adrases; if oil lamps smoke in other rooms, here candle flames flicker in a lively dance. And the resident of this room behaves differently, too, not like the hot-headed, happy-go-lucky lodgers in other quarters" (K.Ermakova tarjimasi, 11-b.).

**Tarjima matni 2:** "At the far end of the main yard, a room stood apart from the others through its singular beauty: while the other rooms bore only felt rugs, this room displayed deep-red carpet; while others laid their heads on cotton quilts, here the owner slept among silk and adrass bedding; while the other living quarters reeked of the soot of blackened lamps, this small room was lit with a single brilliant candle; and while the other tenants displayed a carefree and facetious nature, the occupant of this room appeared to be cast from another material altogether" (M.Riz tarjimasi, 24-b.).

**Tarjima matni 3:** "In the center of caravanserai, there was only one room, a piece of attraction for everybody, with a beautiful red carpet on the floor because all other rooms were just laid with felt. While these rooms had korpachas laid out on the felt, that exceptional room had adrass mattresses laid out on the floor: While a kerosene lamp smelled in other rooms, here a candle brightened the inside. While

---

<sup>17</sup> Латышев Л.К., Семенов А.Л. Перевод: проблемы теории, практики и методика преподавания. Учебное пособие. – М.: Академия, 2003. – 192 с.

*there were light-minded, not serious people in those rooms, here was a smart man looking totally different*” (*I.Tuxtasinov tarjimasi, 6-b.*).

Asliyat matnida adib juda chiroyli tarzda, mahorat bilan Otabek to‘xtagan hujraning qolgan hujralardan farqini tasvirlab berga n. Adib o‘z o‘rinida zimdan kitobxonni Otabek bilan tanishtirishni shu parchadan boshlagan. Otabekning oilaviy sharoiti, ya’ni oliy tabaqa oiladan ekanligini “*kiygiz*” o‘rniga “*qip-qizil gilam*”, “*bo‘z ko‘rpalar*” o‘rniga “*ipak va adras ko‘rpalar*” to‘shalganligi va “*qora charog‘ sasig‘anda sham‘ yonadir*” degan so‘zlar yordamida ifodalab bergan. Bundan tashqari, shu o‘rinda buyuk romannavis bosh qahramonning ichki dunyosi, tabiati haqida ham ma’lumotni “*o‘zga hujralarda yengil tabi‘atlik, serchaqchaq kishilar bo‘lg‘anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda*” degan gapda berib o‘tgan. Bu bilan adib Otabek tabiatan og‘ir-bosiq, mulohazali, kamgap inson ekanligini nazarda tutgan.

Mazkur gap tarjimasida mutarjimlar o‘zining madaniy kodiga ega bo‘lgan karvonsaray, ko‘rpachalar va hujra so‘zlari tarjimasida 2 xil yo‘l tutganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ya’ni, ko‘rpacha so‘zi kasb etgan ma’no ingliz lingvomadaniyatida uchramaganligi sababli tarjimon (*I.Tuxtasinov – Korpachas, K.Ermakova – kurpach*) bu so‘zni transliteratsiya/ transkripsiya usuli orqali o‘giran, biroq Riz tarjimasida ko‘rpacha so‘zining konseptual mohiyatiga yaqin bo‘lgan bedding so‘zining mavjudligi tarjimon ishini yengillashtirgan. Ko‘rpacha so‘zi kasb etgan konseptual mohiyat, shu predmetning ingliz lingvomadaniyatida mavjud bo‘lmaganligi tarjimon kognitiv mexanizmlarida psixolingivistik qoliplar ishtirokini faollashtirgan, natijada funksional analogni ta’minlash usuli ustuvorlik kasb etgan.

Xulosa qilib aytganda, tarjimonning til shaxsining o‘ziga xos xususiyati til shaxsining bir turi sifatida amalga oshiriladi, chunki tarjima matnidan uch darajali model doirasida ajratilgan turli darajalar to‘g‘risida olinishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar miqdori boshqacha bo‘lib chiqadi. Tarjima jarayonida matn masalasi juda sezilarli darajada o‘zgartirilganligi sababli (bir-biriga yaqin tillar bundan mustasno), og‘zaki-semantik darajani tahlil qilish uchun material juda boy. Kognitiv va motivatsion darajalarga nisbatan vaziyat ancha murakkab. Bu yerda tarjimonning tarjimaning qo‘shimcha erkinligi darajasi haqidagi pozitsiyasi muhimdir: tarjima asl nusxaga qanchalik yaqin bo‘lsa, asl matnning o‘zgarishi shunchalik kam bo‘ladi, buning asosida biz tarjimonning lisoniy shaxsini loyihalashni taklif qilamiz. Muallif tomonidan tushunilgan lisoniy olam manzarasi va tarjimonning tezaurusi o‘rtasidagi tafovutlar asosan ikkita holat bilan belgilanadi: 1) asl va tarjima qilingan tilning ona tilida so‘zlashuvchilar madaniyati o‘rtasidagi farq va 2) tarjima amalga oshiriladigan til madaniyati bilan tanishish darajasi: tarjima qilinayotgan til madaniyatining asoslari, uning adabiy an‘analari va xususan tarjima qilinayotgan til va madaniyatdagi an‘analar va asoslar. Shunday qilib, agar manba tilida so‘zlashuvchi va tarjima qiluvchi til madaniyati nisbatan yaqin bo‘lsa yoki boshqa til madaniyatining adabiy merosi qabul qiluvchi tarjima qilinayotgan til madaniyati adabiyotining muhim qismini tashkil etsa, manba matnida keltirilgan lisoniy olam manzarasi va tarjima qilinayotgan matnda modellashirilgan transformatsiyalarga murojaat qilish zarurati yo‘qligi sababli olam tasviri o‘rtasidagi tafovutlar juda



kichik bo‘ladi. Muayyan asar tarjima qilingan matn madaniyatiga kirib borishi bilan, keyingi tarjimalar faqat ma’no uzatishning aniqligini oshirish asosida harakatlanishi mumkin.

Shunday qilib, asliyat matndagi lisoniy olam manzarasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri, faqat ozgina moslashish bilan nusxalash uchun muhim shartlar mavjud. Bu tarjimonning lisoniy shaxsiga tegishli bo‘lgan dunyoning manzarasi muallif bilan birlashishiga va unda erishiga olib keladi. Muallifning lisoniy shaxsiga ham, tarjimonning lisoniy shaxsiga ham bir xil darajada xos bo‘lgan bir-biriga mos keladigan qismlarni ko‘rib chiqish noto‘g‘ri ko‘rinadi, chunki bu holda tarjimonning lisoniy shaxsi haqida mutarjim tarjima qilayotgan asar doirasida gapirish kerak bo‘ladi. Biz tahlilning boshlang‘ich nuqtasini faqatgina matn tahliliga yemas, balki yetuk tarjimon sifatida namoyon bo‘lishda, mutarjimning lisoniy shaxs prototipining shakllanishida tarjimonning ijtimoiy roli, u yashayotgan madaniyat va tarjima qilayotgan matniga ahamiyat berishga harakat qildik. Tarjimonning lisoniy shaxsining tubdan to‘liq emasligi haqida xulosa chiqarishimiz mumkin. Bu yerda Y.N.Karaulov tomonidan ajratilgan “til shaxsi tarkibidagi og‘zaki bo‘lmagan qism” bilan parallel chizish mumkin. Y.N.Karaulov og‘zaki bo‘lmagan qismning bir qismi sifatida ongsiz bo‘lganligi sababli til shaxsining nutqida o‘zini namoyon qilmagan birliklarni o‘z ichiga oladi: “Agar ular tez orada individual ong doirasidan o‘tmasalar, ular ushbu til shaxsining tuzilishida og‘zaki bo‘lmagan bo‘lib qolishlari mumkin”<sup>18</sup>. Tarjimonning lisoniy shaxsiga kelsak, tarjimonning nutqida og‘zaki bo‘lmagan birliklarning mavjudligini taxmin qilishimiz mumkin, chunki ushbu shaxs tomonidan tarjima qilingan matnlarning mavzusi yoki tabiati ushbu birliklarning tarjimalarda namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratmagan. Xuddi shu tarjimon tomonidan boshqa tarjimalarni yaratishda yoki ilgari ko‘rib chiqilmagan tarjimalarni tadqiqotchining ko‘rish sohasiga kiritishda, ilgari kuzatish uchun mavjud bo‘lmagan tarjimonning lisoniy shaxsining boshqa qatlamlari ochiladi. Bizning ishimizda biz tomonimizdan tanlangan asar tarjimonlarining lisoniy shaxsining tarkibiy qismlarini tahlil qilish uchun tanlangan misollar yordamida tasvirlab berishga harakat qilamiz va shu bilan birga tarjimonning lisoniy shaxsi darajalari mazmunini tavsiflash bosqichma-bosqich bo‘lishi mumkinligini anglaymiz.

Dissertatsiyaning III bobi **“Badiiy tarjimada mutarjim lisoniy tafakkurining sotsiokommunikativ va lingvomadaniy reprezentatsiyasi”** deb nomlanadi.

